

“GO’RO’G’LINING TUG’ILISHI” DOSTONIDA MUBOLAG’A SAN’ATI

O’rinova Gulsanam Husan qizi

TerDu o’zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16162174>

Annotatsiya. Ushbu maqola “Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostonida mubolag’a san’atining qo’llanishi haqida.

Kalit so’zlar: mubolag’a, qahramonlar tasviri, vatanparvarlik tuyg’usi, alp, xarakter, xalq, bo’rttirish.

Annotatsiya. This article is about the use of exaggeration in the epic “Birth of the Goroglu”

Keywords: exaggeration, image of heroes, sense of patriotism, alp, character, people, to exaggeration

Аннотация. Это статья посвящена использованию искусства преувеличения в эпоса “Рождения о Герогли”

Ключевые слова: преувеличение, образ героев, чувство патриотизма, альп, характер, люди преувеличивать.

DOSTON so’zi qissa, hikoya, sarguzasht, tarif va maqto’v ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida u xalq og’izaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epic asarlarni anglatadi. M.Saidovning ta’kidlashicha doston murakkab san’at asar bo’lib uning doston bo’lishi uchun adabiy matn musiqa bo’lishi kuylovchi hofizlik san’atini puxta egallagan va soz cherta bilishi kerak. Xalqimiz nechki asrlardan beri dostonlarni sevib eshitib va kuylab keladilar. Asli dostonlar qadimgi xalqimiz xonlardan zulm ko’rib qiynalib yashayotganlarida ularni shu zulmlardan qutqaruvchi bir qahramonni orzu qilishgan va uni kuyga solib qahramonlik sifatleri bilan boyitib aytib kelishgan. Va shu bilan qahramonlik dostonlari paydo bo’lgan. Bu dostonlarda vatanparvarlik, mardlik, sodiqlik ulug’langan. Yaxshilar yomonlar ustidan doim g’alaba qilishi, yurtni yovuz insonlardan qutqaruvchi bir qahramon borligi kuylangan. Bunday dostonlar xalqimiz merosida talaygina. Masalan: “Alpomish” “Go’ro’g’li” “Rustamxon” “Kuntug’mish”.

Dostonlar qiziqarli bo’lishi uchun ko’pgina san’atlardan foydalaniladi va bu san’at ichida eng unumli foydalaniladigani **mubolag’a** san’atidir. Bu san’at bir narsani bo’rttirish haddan ziyod qilib tasvirlashdir. Bu san’at hamma dostonlarda qo’llaniladi. Shuningdek Alpomish dostonida ham bu san’atdan unumli foydalaniladi.

Shomurti yoqalab har yoqqa ketgan, Ichida
sichqonlar bolalab yotgan, Izidan tushgan
pishak olti oyda yetgan. Odam tushmas uning
aytgan tiliga Besh yuz quloch arqon yetmas
beliga Bu qalmoqdir qalmoqlarning ravishi
Oh ursa olamni buzar tovushi
To’qson molning terisidan kovushi Qahrlansa
toshni yorar qahari
To’qson qorning go’shti bo’lmas nahori Har
iziga ketar ancha bahori

Oltmish qari olachadan qalpog'i To'qson
qo'yning terisidan qalpog'i To'rt yuz to'qson
quloch qo'lda hassasi Shuni bilan o'n sakkizta
nashasi To'qson qari bo'zdan bo'lgan kissasi.

Dostonda "Bir kam to'qson" alplar mubolag'a bilan tasvirlangan. Hammasining "kallasi tepaday" "tanasi tepaday" birining shomurti yoqalab har yoqqa ketgan ichida sichqonlar bolalab yotgan, izidan tushgan pishak olti oyda yetgan" "besh yuz quloch quloch yetmas beliga" "to'qson molning terisidan kavushi" va qalmoq alplarini yuqoridagiday hayotiy bo'lmagan bo'rttirishlardan maqsad barcha tasvirlanayotgan alplarni kuch-qudratini badiiy tasdiqlashdan iboratdir.

Huddi shu san'atning yorqin namunalarini "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida ham ko'rishimiz mumkin. Go'ro'g'lining go'rda tug'ilishi va 3 yilgacha sut kelib turishi bolaning ulg'ayib go'rdan chiqishi undan keyin esa Rustam bilib qolib uyiga olib kelishi mubolag'ali tasvirlangan. Go'ro'g'li hali 3-4 yosh bo'lishiga qaramay o'zi tenggilarni hatto kattalarni urib o'ldirib qo'yishi ham bo'rttirib ko'rsatilgan. *"har kim oq kiyim kiyib kelsa indamayman, qora kiyim kiyganini so'yaman. Lekin bir kuni Shohdorxon podshoning ustiga olovlar qo'yaman, oq kiyganlarga ko'p g'avg'olar solaman"*.

Go'ro'g'lidan qo'rqqan oq kiyim kiyib chiqadi, qo'rqmagani buni eshitmaganlar qora kiyim kiyib chiqsa urib so'kib quvib yetganining qo'llarini burab, shol qiladi, yetolmaganlarini uyiga besh-oltib tosh otib, qaytib keladi/. Ayniqsa Go'sfand degan bola bilan oshiq o'ynab yutqizib qo'yib oshig'imni qaytarib ber deganda yo'q bermayman desa Go'ro'g'li bir tarsaki tushirganda Go'sfandni ikki ko'zi irg'ib chiqib ketishi ham mubolag'a qilingan. Keyin shu Go'sfandning otasi Badgirni qo'lidan ushlab bir zo'r bilan yulib oldi. Qaytarib o'z kaltagi bilan o'zini yelkasiga bir oshirib soldi. Badgirni suyaklari yerga naqsh badanlar ayron slogan tulupday mayda mayda bo'ldi serrayib uppa-uzun bo'lib o'lib qoldi deb aytishlariga nima deysiz?

Qahramonlarning harakatlari ham mubolag'a qilinadi masalan, Zaydinoyi Go'ro'g'libek o'g'irlab ketmoqchi bo'lib Ko'kbuloq ko'liga keladi Zaydinoy Xoljuvonning qistovibilar nochor o'rnidan turib mis kosani olib Ko'kbuloqning suvidan surimi yarim qilib Go'ro'g'libekka uzatdi Go'ro'g'libek qo'lidagi mis kosani urib yuborib ikki qo'li bilan ikki qo'lidan ushlab silkib ilgariga tortdi Zaydinoy buni ko'rib labini tishlab achchig'i kelib og'irini solib yerga qarab bir tortdi G'irotni tizzasidan pastki yerga kirib ketti. Bunday bo'lishi qiz bir og'ir tashlaganda G'irotni tizzasigacha yerga kirib ketishiga albatta ishonish qiyin.

Dostonlarda ayollar obrazini tasvirlashda ham mubolag'adan ko'p foydalaniladi.

Masalan, "Alpomish" dostonida Barchinoyi tasvirlashda

Yuzining go'zalligi:

"Oy ko'rmayin qizarar, kun ko'rmayin o'chardi

Yuziga boqib kim ko'rsa, hayratda qolardi

Qaddi-qomadi:

"qaddi niholdan nozik, oy jamolidan o'tardi,

Bir qadam bosib yurishi butun olamni yayratdi

Deya tasvirlaydi.

Bunday tasvirlar “Rustamxon” dostonida ham qo’llaniladi Rustam ham Go’ro’g’li singgari yosh bola bo’la turib onasini dorga osishmoqchi bo’lishganda mardlik ko’rsatib dor tagidan quqarib oladi va Hukumu tog’ida yashay boshlaydi. Keyin Oftoboyini ajdarndan qutqarmoqchi bo’lganda hech kim yengga olmagan ajdarni bir o’zi qirq to’rt go’la qilib tashlashi ham Azbarxo’ja ko’lni egallab yotgan devni o’ldirishi ham anchagina mubolag’aga olingan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki “Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostoni bu nafaqat qahramonlik va adolat kuylanuvchi dostonidir, balki xalqimizning tarixiy madaniy va ruhiy merosidir. U bizni har doim qiyinchiliklarga qarshi kurashishga adolat va vatanparvarlik uchun kurashishga chaqiradi. Bu doston orqali biz an’alarimiz va madaniy merosimizni yanada chuqurroq tushunamiz.

“Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostoni xalq hayoti va turmushini, uning orzu-umidlari va yuksak maqsadlarini, ma’naviy estetik olamini keng miqyosda badiiy aks ettiruvchi asar sifatida bebaho meros sanaladi. Bu dostonda qo’llangan mubolag’a san’atining qo’llanishidan maqsad o’sha davrdagi insonlar o’zlari orzu qilgan qahramonlarning kuch va qudratini badiiy tasdiqlashdan iboratdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oxunjon Safarov “O’zbek xalq og’izaki ijodi” “Musika” nashriyoti Toshkent.2010.B.2-250
2. Yo’ldoshev Q.Qodirov V. Yo’ldoshbekov Adabiyot: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik 1-qism. Toshkent 2014-yil, 8-bet
3. O’zMe. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Go’ro’g’lining tug’ilishi. Gafur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent -1967